Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

CHET EL ARBITRAJ QARORLARINI TAN OLISH VA IJRO ETISHNI RAD ETISHDA “OMMAVIY TARTIB” ISTISNOSINING NAZARIY-HUQUQIY VA XALQARO-HUQUQIY MOHIYATI

Xomidova Oyshaxonim Ulug‘bek qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti,
70420102 — Xalqaro arbitraj va nizolarni hal etish mutaxassisligi magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.24392950

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalqaro tijorat arbitraji qarorlarini tan olish va ijro etishni rad etishning eng bahsli asoslaridan biri sanalgan “ommaviy tartib” istisnosining nazariy-huquqiy va xalqaro-huquqiy mohiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda 1958-yilgi Nyu-York konvensiyasi V moddasi 2-bandi “b” kichik bandi, BMTning Xalqaro savdo huquqi bo‘yicha komissiyasi (UNCITRAL) Namunaviy qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasining “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi Qonuni, Iqtisodiy protsessual kodeksi va Fuqarolik protsessual kodeksi normalari o‘zaro qiyoslanadi. Ichki, xalqaro va transmilliy ommaviy tartib konsepsiyalari hamda moddiy va protsessual ommaviy tartib o‘rtasidagi chegara yoritiladi, istisnoning milliy qonunchilikda turlicha ifodalanishi (“ommaviy tartib”, “qonunchilikning asosiy prinsiplari”) aniqlanadi. Natijada istisnoni tor talqin qilish, qonunchilikdagi ifodalarni uyg‘unlashtirish va sud ajrimlarini asoslantirish standartini kuchaytirishga oid asoslantirilgan ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: xalqaro tijorat arbitraji, ommaviy tartib istisnosi, Nyu-York konvensiyasi, chet el arbitraj qarorini tan olish va ijro etish, transmilliy ommaviy tartib, taraflar muxtoriyati, moddiy va protsessual ommaviy tartib.

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВАЯ И МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВАЯ СУЩНОСТЬ ОГОВОРКИ О “ПУБЛИЧНОМ ПОРЯДКЕ” ПРИ ОТКАЗЕ В ПРИЗНАНИИ И ПРИВЕДЕНИИ В ИСПОЛНЕНИЕ ИНОСТРАННЫХ АРБИТРАЖНЫХ РЕШЕНИЙ

Аннотация. В статье исследуются теоретико-правовая и международно-правовая сущность оговорки о “публичном порядке” как одного из наиболее сложных оснований отказа в признании и приведении в исполнение иностранных арбитражных решений. Проведён сравнительный анализ подпункта “b” пункта 2 статьи V Нью-Йоркской конвенции 1958 года, Типового закона ЮНСИТРАЛ, Закона Республики Узбекистан “О международном коммерческом арбитраже”, а также Экономического процессуального и Гражданского процессуального кодексов. Разграничены внутренний, международный и транснациональный публичный порядок, выявлены различия в формулировке оговорки в национальном законодательстве и предложены меры по совершенствованию судебной практики.

Ключевые слова: международный коммерческий арбитраж, публичный порядок, Нью-Йоркская конвенция, признание и исполнение арбитражных решений, транснациональный

публичный порядок, автономия воли сторон, материальный и процессуальный публичный порядок.

THEORETICAL-LEGAL AND INTERNATIONAL-LEGAL ESSENCE OF THE "PUBLIC POLICY" EXCEPTION IN REFUSING RECOGNITION AND ENFORCEMENT OF FOREIGN ARBITRAL AWARDS

Abstract. This article examines the theoretical-legal and international-legal essence of the "public policy" exception as one of the most controversial grounds for refusing the recognition and enforcement of foreign arbitral awards. The study provides a comparative analysis of Article V(2)(b) of the 1958 New York Convention, the UNCITRAL Model Law, the Law of the Republic of Uzbekistan "On International Commercial Arbitration", and the Economic Procedure and Civil Procedure Codes. The paper delineates the boundaries between domestic, international, and transnational public policy, identifies divergent formulations of the exception in Uzbek legislation, and puts forward substantiated proposals for narrowing and harmonizing the standard of review.

Keywords: international commercial arbitration, public policy exception, New York Convention, recognition and enforcement of foreign arbitral awards, transnational public policy, party autonomy, substantive and procedural public policy.

I. KIRISH

Globallashuv va transchegaraviy savdo aloqalari jadallashgan hozirgi davrda xalqaro tijorat nizolarini tezkor, xolis hamda yakuniy hal etish mexanizmlariga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Xalqaro arbitraj huquqining yetakchi nazariyotchilaridan biri **G. Born** ta’kidlaganidek [3], xalqaro tijorat arbitraji taraflarga milliy sud yurisdiksiyalarining byurokratik cheklovlaridan chetlanish va nizoni hal etish tartibini o‘z ixtiyoriga ko‘ra belgilash (taraflar muxtoriyati) imkonini beradi, biroq uning amaliy qimmati pirovard natijada chiqarilgan hal qiluv qarorining xorijiy davlat hududida tan olinishi va majburiy ijro etilishi bilan o‘lchanadi.

Aynan shu maqsadda 1958-yilda qabul qilingan “Xorijiy arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish to‘g‘risida”gi BMT Konvensiyasi (Nyu-York konvensiyasi) xalqaro arbitraj qarorlarining transchegaraviy harakatini ta’minlovchi fundamental xalqaro-huquqiy poydevor vazifasini o‘tab kelmoqda [1]. O‘zbekiston Respublikasi Konvensiyaga 1996-yilda qo‘shilgan. Konvensiyaning V moddasida chet el arbitraj qarorini tan olish va ijro etishni rad etishning yettita yopiq asosi nazarda tutilgan bo‘lib, ulardan dastlabki beshtasi qarzdorning iltimosi hamda taqdim etgan dalillari asosida, qolgan ikkitasi esa davlat sudining o‘z tashabbusi bilan qo‘llaniladi. Ushbu asoslar orasida eng nozik va ko‘p bahslarga sabab bo‘ladigani V modda 2-bandi “b” kichik bandida mustahkamlangan “mamlakatning ommaviy tartibiga zidlik” istisnosidir [1].

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, na Nyu-York konvensiyasida, na BMTning Xalqaro savdo huquqi bo‘yicha komissiyasi Namunaviy qonunida va na O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 16-fevraldagi “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi O‘RQ-674-son Qonunida (keyingi o‘rinlarda — Qonun) “ommaviy tartib” tushunchasiga aniq yuridik ta’rif berilmagan [1; 2; 14]. Doktor **H.A. Tosun** o‘z dissertatsiyasida qayd etganidek, Konvensiya matnidagi bunday mavhumlik milliy sudlarga keng ixtiyoriy vakolat taqdim etadi, bu esa turli yurisdiksiyalarda bir-biriga zid sud amaliyotining

shakllanishiga olib kelmoqda [7]. O‘zbekistonlik huquqshunos olimlar **L. Achilova, U. Kuchimov** hamda **A. Jo‘rayeva** ham milliy qonunchilikda “ommaviy tartib” mezonlarining ochiq qolishi sudlar tomonidan subyektiv talqin qilish va chet el arbitraj qarorlarini tan olish hamda ijro etishni asossiz rad etish xavfini yuzaga keltirishini ta’kidlaydilar [8; 9; 10]. Shu bilan birga, 2018–2024-yillardagi O‘zbekiston iqtisodiy sudlari amaliyotini o‘rgangan so‘nggi tadqiqotga ko‘ra, sudlar bu istisnoni asosan tor talqin qilishga moyil [18]; shu bois masalaning mohiyati amaliyotning cheklovchiligida emas, balki mezonlarning qonunchilik va Oliy sud darajasida aniq mustahkamlanmaganligida ko‘rinadi. Maqolaning maqsadi — istisnoning nazariy chegaralarini aniqlash, uning O‘zbekiston qonunchiligida ifodalanishini xalqaro standartlar bilan solishtirish hamda tegishli takliflarni asoslashdir.

II. METODLAR

Tadqiqotda ommaviy tartib istisnosining nazariy hamda xalqaro-huquqiy tabiatini ochib berish maqsadida umumilmiy va maxsus yuridik metodlar qo‘llanildi. Xususan, qiyosiy-huquqiy metod yordamida 1958-yilgi Nyu-York konvensiyasi V moddasi 2-bandi “b” kichik bandi, BMTning Xalqaro savdo huquqi bo‘yicha komissiyasi Namunaviy qonunining 34 va 36-moddalari, Qonunning 52-moddasi, Iqtisodiy protsessual kodeksining 256-moddasi hamda Fuqarolik protsessual kodeksining 370-moddasi normalari o‘zaro taqqoslandi; shuningdek AQSH, Fransiya va Yevropa Ittifoqi sud amaliyotidan tanlangan yetakchi ishlar tahlil qilindi.

Bundan tashqari, doktrinal va tizimli tahlil metodlari asosida P. Mayer, J. Paulsson, H. Fazilatfar va G. Born asarlarida ilgari surilgan “ichki”, “xalqaro” hamda “transmilliy” ommaviy tartib konsepsiyalari, shuningdek kollizion huquqdagi shartnoma qismlariga alohida huquqni qo‘llash (alohidalash usuli) va o‘ta imperativ normalar nazariyalari tizimlashtirildi. Xalqaro huquq assotsiatsiyasining 2002-yilgi Nyu-Dehli yakuniy hisoboti va tavsiyalari normativ-doktrinal manba sifatida, tanlangan sud ishlari (kazuistik tahlil) esa nazariy xulosalarni amaliyot bilan solishtirish uchun ishlatildi. Tadqiqotning cheklovi shundaki, O‘zbekiston sud amaliyoti birlamchi sud hujjatlari bo‘yicha emas, balki ikkilamchi manbalar [8; 9; 10; 18] asosida baholandi.

III. NATIJALAR

O‘tkazilgan nazariy va qiyosiy-huquqiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, ommaviy tartib istisnosi bir xil ko‘rinishdagi oddiy huquqiy norma emas, balki uch darajali murakkab doktrinal tizimdan iborat. Parij I Panteon-Sorbonna universiteti professori **P. Mayer** hamda doktor **H.A. Tosun** tadqiqotlarida [4; 7] ushbu tizimning uch mustaqil bosqichi aniq farqlanadi. **Birinchi bosqich** ichki ommaviy tartib bo‘lib, u muayyan davlatning milliy huquqiy munosabatlarini tartibga soluvchi barcha imperativ normalar yig‘indisini o‘z ichiga oladi va milliy bitimlarning haqiqiyligini baholashda qo‘llaniladi. **Ikkinchi bosqich** xalqaro xususiy huquq ma’nosidagi xalqaro ommaviy tartib sanalib, u ichki ommaviy tartibga nisbatan ancha tor tushunchadir, chunki u faqat davlat huquqiy tizimining eng fundamental, daxlsiz axloqiy, konstitutsiyaviy hamda adolat prinsiplarini qamrab oladi. Konvensiya matni “mamlakatning ommaviy tartibi” deb atasa-da, xalqaro doktrina va Xalqaro huquq assotsiatsiyasining tavsiyalari uni aynan shu ikkinchi darajadagi tor, fundamental prinsiplarga asoslangan ommaviy tartib sifatida talqin qilishni asoslaydi [11], shu bois chet el arbitraj qarorining milliy qonunchilikdagi oddiy imperativ normaga zid kelishi uni tan olish va ijro etishni rad etish uchun yetarli asos bo‘la olmaydi. **Uchinchi bosqich** esa P. Lalive va P. Mayer tomonidan asoslangan transmilliy ommaviy tartib bo‘lib, u biron-bir

alohida davlat qonunchiligiga emas, balki xalqaro hamjamiyatda umume'tirof etilgan global axloqiy-huquqiy konsensusga ya'ni korrupsiya, poraxo'rlik, terrorizm, giyohvandlik savdosi hamda irqiy kamsitishni taqiqlashga tayanadi. Masalan, Xalqaro savdo palatasining 1110-sonli ishida (1963) yagona arbitr G. Lagergren poraxo'rlikni "xalqaro yovuzlik" sifatida baholab, da'voni ko'rib chiqishdan bosh tortgan [19]. Shuni ta'kidlash kerakki, bu qaror tan olish bosqichida emas, ishni mazmunan hal etish bosqichida chiqarilgan bo'lib, transmilliy ommaviy tartib arbitrlarning o'zi uchun ham mezon bo'la olishini ko'rsatadi.

Qiyosiy sud amaliyoti bu nazariy farqlarni tasdiqlaydi. AQSH Ikkinchi apellyatsiya sudi Parsons & Whittemore v. RAKTA ishida (1974) Konvensiyadagi ommaviy tartib istisnosini faqat davlatning axloq va adolatga oid eng asosiy tushunchalariga zid kelgan taqdirdagina qo'llash mumkinligini ta'kidlagan [15]. Parij apellyatsiya sudi Thales Air Defence v. Euromissile ishida (2004) xalqaro ommaviy tartibning **"yaqqol, haqiqiy va konkret"** (flagrant, effective and concrete) buzilishini talab qilgan [17], Yevropa Ittifoqi Sudi esa Eco Swiss v. Benetton ishida (1999) Yevropa Ittifoqining raqobat huquqi normalarini ommaviy tartib tarkibiga kiritgan [16]. Bu amaliyot ommaviy tartibning mazmuni sud joylashgan davlatning fundamental qadriyatlariga bog'liq bo'lsa-da, uni qo'llash standarti bo'lib, uni tor talqin va qarorni mazmunan qayta ko'rib chiqmaslik umumiy ekanini ko'rsatadi.

Tadqiqotning ikkinchi muhim natijasi shundan iboratki, ommaviy tartib buzilishi amaliyotda ikki xil shaklda moddiy hamda protsessual shakllarda namoyon bo'ladi. Xalqaro huquq assotsiatsiyasining Nyu-Dehli tavsiyalari hamda **L. Achilova** tadqiqotlariga ko'ra [11; 8], moddiy ommaviy tartib arbitraj qarori mazmuni va ijro oqibatlarining davlatning fundamental huquqiy tamoyillariga, jumladan shartnomalarning majburiyligi (pacta sunt servanda), yaxshi niyatlilik, adolatsiz boyishni taqiqlash yoki raqobat huquqining asosiy qoidalariga zid kelishini anglatadi. Bunga qarama-qarshi ravishda protsessual ommaviy tartib arbitraj muhokamasi jarayonida tabiiy adolat va adolatli sudlov kafolatlarining qo'pol ravishda buzilishini, masalan, arbitrning manfaatlar to'qnashuvi va tarafkashligini, soxta dalillarga tayanishni yoxud tarafning o'z pozitsiyasini himoya qilish huquqidan mahrum etilishini ifodalaydi.

Uchinchi natija sifatida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida istisno turlicha ifodalanganligi aniqlandi. Qonunning 52-moddasida va Iqtisodiy protsessual kodeksining 256-moddasida "ommaviy tartib" atamasi qo'llangan bo'lib, Iqtisodiy protsessual kodeksida unga qo'shimcha ravishda qarorni tan olish yoki ijro etish ommaviy tartibga "tahdid solishi" ham rad etish asosi sifatida ko'rsatilgan. Fuqarolik protsessual kodeksining 370-moddasida esa "ommaviy tartib" atamasi o'rniga davlat suverenitetiga va xavfsizligiga zarar yetkazish hamda "qonunchilikning asosiy prinsiplariga" zidlik mezonlari ishlatilgan [2; 12; 13]. Bundan tashqari, ilmiy adabiyotda bir xil institut ko'pincha "jamoat tartibi" atamasi bilan nomlanadi [8]. Bunday nomuvofiqlik istisnoning Konvensiya va Namunaviy qonundagi tor mazmunidan chetga chiqib, sudlarga uni kengroq talqin qilish uchun asos berishi mumkin. Shuningdek, **A. Jo'rayeva** tomonidan to'g'ri qayd etilganidek, milliy sudlarning elektron axborot tizimlarida chet el arbitraj qarorlarini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi arizalar da'vo ish yurituvidan alohida toifa sifatida ajratilmaganligi sababli mazkur toifadagi ishlar bo'yicha yagona sud amaliyoti hamda statistikasini shakllantirishda muammolar yuzaga kelmoqda [10].

IV. MUHOKAMA

Xalqaro arbitraj nazariyasi va amaliyotida taraflar muxtoriyati bilan davlatlarning imperativ ommaviy tartib normalari o'rtasidagi muvozanat masalasi doimo bahslar markazida bo'lib kelgan.

Professor **J. Paulsson** o‘z ilmiy ishlarida davlat sudlarining arbitraj qaroriga aralashuvi faqat jamiyatning fundamental asoslariga real tahdid tug‘ilgandagina oqlanishini asoslaydi [5]. Xuddi shunday yondashuv AQSH Ikkinchi apellyatsiya sudining Parsons & Whittemore ishidagi (1974) qarorida ham o‘z aksini topgan: unda ommaviy tartib istisnosi “milliy siyosiy manfaatlarni himoya qiluvchi mahalliy vositaga aylanmasligi” va faqat sud joylashgan davlatning “axloq va adolatning eng asosiy tushunchalarini” buzgan taqdirdagina qo‘llanilishi lozimligi belgilab qo‘yilgan [15]. Qarama-qarshi nuqtai nazar tarafdorlari esa har bir davlat o‘z fundamental qadriyatlarini mustaqil belgilashi va sud nazorati buning uchun yetarli kenglikka ega bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi; bu yondashuv suverenitet nuqtai nazaridan tushunarli, biroq u qarorni mazmunan qayta ko‘rib chiqishga yo‘l ochib, Konvensiyaning ijroni qo‘llab-quvvatlovchi (pro-enforcement) ruhiga zid keladi.

Shu o‘rinda professor **H. Fazilatfar** tomonidan ilgari surilgan metodologik yondashuv ham alohida e’tiborga loyiqdir. Uning fikricha, nafaqat davlat sudlari, balki arbitraj tribunallarining o‘zi ham kelgusida qarorning ommaviy tartib istisnosi asosida bekor qilinishi yoki rad etilishini oldini olish uchun kollizion metodologiyani moslashtirishi lozim. Jumladan, shartnomaning o‘ta imperativ normalar bilan to‘qnash kelgan qismiga nisbatan alohida huquqni qo‘llash usuli yoxud arbitraj jarayonida ko‘p bosqichli kelishuv (arbitraj-mediatsiya-arbitraj) mexanizmidan foydalanish qarorning ijro etilish ehtimolini oshirishi mumkin [6].

Muallifning fikricha ham, ommaviy tartib istisnosini tor talqin qilish yondashuvi nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham ustun. Birinchidan, Konvensiya chet el arbitraj qarorlarining transchegaraviy ijrosini osonlashtirish maqsadida qabul qilingan, V moddadagi asoslar esa istisno xarakteriga ega va keng talqin etilmasligi lozim. Ikkinchidan, ommaviy tartib asosi sud tomonidan o‘z tashabbusi bilan qo‘llanadigan yagona keng ixtiyoriy asos bo‘lgani uchun uni keng talqin qilish arbitraj qarorini mazmunan qayta ko‘rib chiqishning yashirin shakliga aylanib ketishi mumkin. Uchinchidan, “ommaviy tartib”ning keng talqini, ayniqsa, mahalliy qarzdor yoki davlat ulushi bor korxona ishtirok etgan nizolarda xorijiy investorlar uchun ijro bashorat qilinmasligi xavfini oshiradi va O‘zbekistonning arbitraj uchun jozibadorligiga putur yetkazadi. Shu bilan birga, tor talqin transmilliy ommaviy tartib (korrupsiya, terrorizm kabi) buzilgan holatlarda ijroni rad etishga to‘sqinlik qilmaydi: u istisnoni bekor qilmaydi, faqat uni fundamental qadriyatlarning yaqqol buzilishi bilan cheklaydi. Mazkur pozitsiya P. Mayer, J. Paulsson va H.A. Tosun yondashuvlariga yaqin bo‘lib, tor talqin standartini milliy qonunchilikda ham mustahkamlash zarurligini asoslaydi [4; 5; 7].

Yuqoridagi nazariy va qiyosiy tahlillardan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston Respublikasi sud amaliyotida U. Kuchimov va A. Jo‘rayeva tomonidan ko‘rsatilgan [9; 10] huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yanada mustahkamlash maqsadida quyidagi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

Birinchidan, qonunchilikda ifodalarning birxilligini ta’minlash zarur. Qonunning 52-moddasi hamda Iqtisodiy protsessual kodeksining 256-moddasida “ommaviy tartib” atamasi qo‘llangan, Fuqarolik protsessual kodeksining 370-moddasida esa “suverenitet, xavfsizlik va qonunchilikning asosiy prinsiplari” mezonlari keltirilgan, ilmiy adabiyotda esa “jamoat tartibi” atamasi keng ishlatiladi. Fuqarolik protsessual kodeksining 370-moddasini Qonunning 52-moddasiga muvofiqlashtirib, yagona “ommaviy tartib” atamasi bilan ifodalash, Iqtisodiy protsessual kodeksidagi “tahdid solsa” qo‘shimchasini esa Namunaviy qonundagi “zid kelsa” mezoni bilan uyg‘unlashtirish lozim [2; 12–14].

Ikkinchidan, Oliy sud Plenumi darajasida rasmiy sharh berish talab etiladi. Oliy sud Plenumining tegishli qarorida (yangi qaror qabul qilish yoki mavjud tushuntirishlarga qo‘shimcha kiritish yo‘li bilan) “ommaviy tartib” istisnosini tor talqin qilish tamoyilini mustahkamlash; buzilish yaqqol va konkret bo‘lishi lozimligini belgilash; milliy qonunchilikdagi oddiy imperativ normaning buzilishi yoki mahalliy qarzdorning (jumladan, davlat ulushi mavjud korxonaning) moliyaviy zarar ko‘rishi o‘z-o‘zidan O‘zbekiston Respublikasining ommaviy tartibiga zid emasligini aniq ko‘rsatish kerak [11; 17].

Uchinchidan, sud ajrimlarida asoslantirish standartini kuchaytirish muhim. Davlat sudi Nyu-York konvensiyasi V moddasi 2-bandi “b” kichik bandi asosida chet el arbitraj qarorini tan olish va ijro etishni rad etganda, arbitraj qarorini mazmunan qayta ko‘rib chiqishga yo‘l qo‘ymagan holda, aynan qaysi konstitutsiyaviy prinsip yoki fundamental huquqiy asos buzilganligini sud hujjatida batafsil asoslab berishi shart.

To‘rtinchidan, raqamli sud tizimlarida to‘g‘ri tasniflashni joriy etish lozim. Sudlarning elektron axborot tizimlarida chet el arbitraj qarorlarini tan olish va ijroga qaratish to‘g‘risidagi arizalarni da’vo ish yurituvidan alohida mustaqil ish toifasi sifatida ajratish sud statistikasining shaffofligini ta’minlaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ommaviy tartib istisnosi xalqaro tijorat arbitrajida taraflar muxtoriyati bilan davlat suvereniteti o‘rtasidagi nozik muvozanatni saqlab turuvchi favqulodda huquqiy filtr vazifasini bajaradi. P. Mayer, G. Born, J. Paulsson, H. Fazilatfar va H.A. Tosun kabi olimlarning tadqiqotlari hamda AQSH, Fransiya va Yevropa Ittifoqi sud amaliyoti mazkur institutning samaradorligi uning tor hamda xalqaro standartlarga muvofiq qo‘llanilishiga bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi [3–7; 15–17]. O‘zbekiston qonunchiligida istisnoning turlicha ifodalanishi (Qonun va Iqtisodiy protsessual kodeksida “ommaviy tartib”, Fuqarolik protsessual kodeksida esa “qonunchilikning asosiy prinsiplari”) hamda mezonlarning Oliy sud darajasida aniqlashtirilmaganligi sudlarga keng talqin qilish xavfini saqlab qoladi. Taklif etilgan choralar: ifodalarni uyg‘unlashtirish, tor talqin tamoyilini Oliy sud Plenumi darajasida mustahkamlash va ajrimlarni asoslantirish standartini oshirish — xorijiy investorlar huquqlarining ishonchli kafolatlanishiga hamda O‘zbekistonning arbitraj uchun jozibadorligi oshishiga xizmat qilishi mumkin. Kelgusidagi tadqiqotlar O‘zbekiston sudlarining birlamchi hujjatlari asosidagi empirik tahlilga yo‘naltirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Xorijiy arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish to‘g‘risidagi BMT Konvensiyasi (Nyu-York, 1958-yil 10-iyun) // BMT Shartnomalar to‘plami. 330-jild. 38-bet.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 16-fevraldagi “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi O‘RQ-674-son Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.02.2021-y., 03/21/674/0122-son.
3. Born G.B. Xalqaro tijorat arbitraji. 3-nashr. — Gaaga: Kluwer Law International, 2021.
4. Mayer P. Xalqaro arbitrajda xalqaro ommaviy tartibning ta’siri // Xalqaro arbitrajning dolzarb muammolari. — Kluwer Law International, 2006. — 61–69-betlar.
5. Paulsson J. Xalqaro arbitrajda jamoat manfaati // Amerika xalqaro huquq jamiyati materiallari. 106-jild, 2012. — 300–304-betlar.
6. Fazilatfar H. Xalqaro arbitrajda ommaviy tartib normalari va huquqni tanlash metodologiyasini moslashtirish // Janubiy Karolina xalqaro huquq va biznes jurnali. 18-jild, 2-son, 2022. — 88–111-betlar.

7. Tosun H.A. Xalqaro arbitrajda ommaviy tartib konsepsiyalari: Huquq fanlari doktori dissertatsiyasi. — Kaliforniya universiteti, Berkli, 2019. — 138 b.
8. Achilova L., Ashurova M. Xalqaro tijorat arbitrajida “jamoat tartibi” tushunchasining ahamiyati va roli // Zamonaviy fan va tadqiqotlar. 3-jild, 2-son, 2024.
9. Kuchimov U. Arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish hamda O‘zbekistonning arbitraj qarorlariga oid amaliyoti // SSRN elektron jurnali, 2012.
10. Jo‘rayeva A. O‘zbekistonda xalqaro tijorat arbitraji qarorlarini ijro etishdagi to‘siqlar // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. 5-jild, 8-son, 2025. — 224–228-betlar.
11. Xalqaro huquq assotsiatsiyasi (ILA). Xalqaro arbitraj qarorlarini ijro etishga to‘siq sifatida ommaviy tartib bo‘yicha yakuniy hisobot. — Nyu-Dehli konferensiyasi, 2002.
12. O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi (256-modda) // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: https://lex.uz/docs/-3523891
13. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi (370-modda) // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: https://lex.uz/docs/-3517337
14. UNCITRAL Model Law on International Commercial Arbitration (1985), with amendments as adopted in 2006 (arts. 34, 36). — United Nations, 2008.
15. Parsons & Whittemore Overseas Co. v. Société Générale de l’Industrie du Papier (RAKTA), 508 F.2d 969 (2d Cir. 1974).
16. Eco Swiss China Time Ltd v. Benetton International NV, Case C-126/97, Judgment of the Court of 1 June 1999, ECR I-3055.
17. Cour d’appel de Paris, 18 novembre 2004, Thales Air Defence BV v. GIE Euromissile.
18. Recognition and Enforcement of Foreign Arbitral Awards in Uzbekistan // Access to Justice in Eastern Europe: https://ajee-journal.com/recognition-and-enforcement-of-foreign-arbitral-awards-in-uzbekistan
19. ICC Case No. 1110 of 1963 (G. Lagergren, sole arbitrator) // Arbitration International. 1994. Vol. 10, No. 3. — pp. 282–294.